

ZAMONAMIZ YOSHLARIMIZNING OG‘ZAKI NUTQIDA SO‘Z BOYLLIGINING KAMAYISH SABABLARI VA NUTQNI O‘STIRISH USULLARI

*Kenjayev Sindor Faxriddin o‘g‘li,
ToshDO‘TAU OTAT fakulteti 3-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarning og‘zaki nutqida uchraydigan kamchiliklar, so‘z boylligining kamayish sabablari va ularni oldini olish usullari haqida so‘z boradi. O‘quvchilar nutqiga ijtimoiy tarmoqlarning, ommaviy axborot vositalarining qay darajada ta’siri yoritilgan. Bundan tashqari, nutqni o‘stirish shartlari maqolada birma-birma sanab o‘tilgan va nutq o‘stirish yo‘nalishlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Og‘zaki nutq, qoida, ijtimoiy tarmoqlar, jamiyat, talaffuz, tajriba.

Article: This article discusses the shortcomings of students' oral speech, the reasons for the decrease in vocabulary, and methods for preventing them. The extent to which social networks and mass media influence students' speech is highlighted. In addition, the article lists the conditions for developing speech one by one and presents directions for developing speech.

Keywords: Oral speech, rule, social networks, society, pronunciation, experience.

Аннотация: В статье рассматриваются нарушения, возникающие в устной речи учащихся, причины потери словарного запаса и методы выявления проблем. В какой степени учащиеся обеспечены социальными сетями и социальной информацией? Кроме того, направления развития речи перечислены по порядку в вопросах развития речи.

Ключевые слова: Устная речь, правило, социальная сфера, общество, произношение, опыт.

Nutq - ma’lum qoidalar asosida yaratilgan til tuzilmalari orqali odamlar o‘rtasidagi tarixan shakllangan muloqot shakli. Hisoblash jarayoni, bir tomondan, til (nutq) vositalari bilan fikrni bayon qilish va shakllantirishni, ikkinchi tomondan, til tuzilmalarini idrok etish va ularni tushunishni o‘z ichiga oladi. Nutq og‘zaki muloqot hisoblanadi. Nutq psixolingvistik jarayon bo‘lib, inson tillari mavjudligining og‘zaki shaklidir. Insonning o‘tmishda ham, hozirgi paytda ham umuminsoniy tajribasidan foydalanishga imkon bergan eng muhim yutug‘i mehnat faoliyati asosida rivojlangan nutq aloqasi edi. Nutq harakatdagi tildir. Til - bu so‘zlarni ularning ma’nolari va sintaksisi bilan o‘z ichiga olgan belgilar tizimi - jumalardan tuziladigan qoidalar

to'plami. Nutq, bevosita til bilan bog'liq bo'lgan jarayon. Shu nuqtayi nazardan tilning quyidagi asosiy funksiyalari ajralib turadi:

- ijtimoiy-tarixiy tajribaning mavjudligi, uzatilishi va o'zlashtirilishi vositasi;
- aloqa vositalari (aloqa).

I.P.Pavlov ta'kidlaganidek, faqat nutq faoliyati odamga voqelikni mavhumlash va umumlashtirish imkoniyatini beradi, bu esa inson tafakkurining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Bugungi globallashtirish davrida til – har bir xalqning ma'naviy boyligi, milliy o'zligini ifodalovchi asosiy vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, yosh avlodning og'zaki nutq boyligi jamiyat madaniyatining muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Ammo afsuski, so'nggi yillarda zamonaviy yoshlarning og'zaki nutqida so'z boyligi kamayib borayotgani kuzatilmoqda. Bu holat bevosita bir nechta ijtimoiy, madaniy va texnologik omillar bilan bog'liq. Avvalo, bugungi yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatining pasaygani sezilarli darajada ta'sir qilmoqda. Badiiy va ilmiy adabiyotlarni mutolaa qilish so'z boyligini oshirish, fikrni aniq va ravon ifoda eta olish ko'nikmasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ammo hozirgi yoshlarning katta qismi vaqtlarini ko'proq telefon, kompyuter va boshqa raqamli qurilmalar bilan o'tkazmoqda. Ikkinchi muhim omil – ijtimoiy tarmoqlarning ta'siridir. Yoshlar orasida ommalashgan ijtimoiy tarmoqlarda qisqa, sodda, ko'pincha adabiy me'yorlarga zid bo'lgan jumlar ishlatiladi. Bu esa ularning nutqida so'zlarning xilma-xilligi yo'qolib borishiga olib keladi. Bundan tashqari, ingliz tilidan yoki boshqa xorijiy tillardan kirib kelgan so'zlarning ko'p ishlatilishi ham ona tilidagi boy so'zlarni siqib chiqaradi. Shuningdek, maktab va oliy ta'lim muassasalarida og'zaki nutqni rivojlantirishga yetarlicha e'tibor berilmayotgani ham muammo hisoblanadi. Dars jarayonlarida asosan yozma ishlar baholanadi, og'zaki muloqotga esa ikkinchi darajali vazifa sifatida qaraladi. Bu esa yoshlarning o'z fikrini erkin, aniq va to'g'ri ifodalash qobiliyatini sustlashtiradi. Ommaviy axborot vositalari, televideniye va internetda keng tarqalgan ommaviy madaniyat ham yoshlar nutqiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Chunki bu platformalarda ko'pincha sodda, ba'zida esa nuqtai nazardan yiroq, qoloq uslubdagi nutqlar tarqatiladi. Natijada yoshlar boy va ifodali nutqni emas, balki soddalashtirilgan, hatto lo'nda bo'lsa-da mazmunsiz iboralarni ko'proq qo'llashga odatlanadi. Zamonamiz yoshlarining og'zaki nutqida so'z boyligining kamayishiga ko'plab omillar sabab bo'lmoqda. Bu esa tilimiz boyligining yo'qolishiga, milliy o'zligimizga putur yetkazishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, ta'lim tizimida, oilada va jamiyatda yoshlarning og'zaki nutqini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, ularni kitobxonlikka, sof va boy tilni qadrlashga undash dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Lekin shu nutqni o'stirishning ham bir qancha usullari mavjud. Agar o'quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda tilni har

tomonlama (talaffuzi, lugʻati, sintaktik qurilishini, bogʻlanishli nutqni) faol amaliy oʻzlashtirish tushuniladi. Agar oʻqituvchi koʻzda tutilsa, nutq oʻstirish deganda, oʻquvchilarning tilning talaffuzi, lugʻati, sintaktik qurilishi va bogʻlanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qoʻllash tushuniladi. Shuning uchun ham Milliy oʻquv dasturiga koʻra oʻquvchilarda nutqiy kompetensiyani shakllantirishga eʼtibor beriladi va sinflar kesimida amalga oshiriladi. Nutq faoliyati uchun, shuningdek, oʻquvchilar nutqini oʻstirish uchun bir necha **shartga** rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab boʻlishi kerak. Oʻquvchilar nutqini oʻstirishning metodik talabi oʻquvchi oʻz fikrini, nimanidir ogʻzaki yoki yozma bayon qilish xohishini va zaruriyatini yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali boʻlishi lozim. Bu material qanchalik toʻliq, boy, qimmatli boʻlsa, uning bayoni shunchalik mazmunli boʻladi. Shunday ekan, oʻquvchilar nutqini oʻstirishning ikkinchi sharti nutqqa oid mashqlarning materiali haqida boʻlib, oʻquvchi nutqi mazmunli boʻlishi uchun gʻamxoʻrlik qilish hisoblanadi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan soʻz, soʻz birikmalari, gap, nutq oborotlari yordamida ifodalansagina tushunarli boʻladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli oʻstirishning uchinchi sharti – nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi. Oʻquvchilarga til namunalarini berish, ular uchun yaxshi nutqiy sharoit yaratish zarur. Nutqni eshitish va undan oʻz tajribasida foydalanish natijasida bolalarda taʼlim metodikasi asoslanadigan ongli ravishda “tilni sezish” shakllanadi. Nutq oʻstirishning metodik sharti nutqiy faoliyatning keng tizimini yaratish, yaʼni, birinchidan, yaxshi nutq namunasini idrok etish, ikkinchidan, oʻrgangan til vositalaridan foydalanib, oʻz fikrini bayon etish uchun sharoit yaratish hisoblanadi. Bola tilni nutqiy faoliyat jarayonida oʻzlashtiradi. Buning oʻzi yetarli emas, chunki u nutqni yuzaki oʻzlashtiradi. Nutqni egallashning qator **aspektlari** mavjud. Bular:

1. Adabiy til meʼyorlarini oʻzlashtirish. Maktab oʻquvchilarni adabiy tilni sodda soʻzlashuv tilidan, sheva va jargondan farqlashga oʻrgatadi, adabiy tilning badiiy, ilmiy, soʻzlashuv variantlari bilan tanishtiradi.

2. Jamiyatimizning har bir aʼzosi uchun zarur boʻlgan muhim nutq malakalarini, yaʼni oʻqish va yozish malakalarini oʻzlashtirish. Bu bilan oʻquvchilar yozma nutqning xususiyatlarini, uning ogʻzakisoʻzlashuv nutqidan farqini bilib oladi.

3. Oʻquvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish. Til jamiyatdagi eng muhim aloqa vositasidir. Tilning mana shu ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqib, maktabda oʻquvchilarning nutq madaniyatiga alohida eʼtibor beriladi. Bu vazifalarni bajarish uchun oʻqituvchi oʻquvchilar bilan rejali ish olib borishi lozim. Buning uchun esa oʻquvchilar nutqini oʻstirish ustida ishlash tushunchasiga nimalar kirishini bilib olish muhimdir.

Nutq o‘stirishda **uch yo‘nalish** aniq ajratiladi:

- 1) so‘z ustida ishlash;
- 2) so‘z birikmasi va gap ustida ishlash;
- 3) bog‘lanishli nutq ustida ishlash.

So‘z, so‘z birikmasi va gap ustida ishlash uchun lingvistik baza bo‘lib leksikologiya (frazologiya va stilistika bilan birgalikda), morfologiya, sintaksis xizmat qiladi; bog‘lanishli nutq esa mantiqqa, adabiyotshunoslik va murakkab sintaktik butunlik lingvistikasiga asoslanadi. Maktabda o‘quvchilar nutqini o‘stirishga ona tili o‘qitishning asosiy vazifasi deb qaraladi. Nutq o‘stirish faqat ona tili va o‘qish darslarininggina emas, balki o‘quv rejasidagi barcha fanlar (tabiiy fanlar, matematika, texnologiya, tasviriy san‘at, musiqa darslari)ning, shuningdek, sinfdan tashqari o‘tkaziladigan tadbirlarning ham vazifasidir.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy yoshlarning og‘zaki nutqida so‘z boyligining kamayishiga zamonaviy texnologiyalar, kitobxonlikning kamayishi, noto‘g‘ri muloqot vositalarining ommalashuvi kabi ko‘plab omillar sabab bo‘lmoqda. Buni bartaraf etish uchun esa o‘z ustida tinimsiz ishlash, til boyligini oshirishga yo‘naltirilgan faoliyatlar bilan shug‘ullanish zarur. Zero, nutqi ravon, so‘zi boy avlod – har qanday jamiyatning ma‘naviy tayanchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimova I. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 2-sinf o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. 128 bet.
2. Hamroyev A., Po‘lotova Y. Ona tili o‘qitish metodikasi. – B.: Durdona, 2021. 312 bet.
3. Fayzullayeva M., Raximova Z., Rustamova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o‘stirish. -Toshkent: O‘qituvchi, 2010. 47 bet.
4. Shodiyeva Q., Maktabgacha yoshdagi bolalarni to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish. - Toshkent: O‘qituvchi, 1990. 54 bet.
5. Shodiyeva Q. O‘rta guruh bolalari nutqini o‘stirish. -Toshkent: O‘qituvchi, 1993. 17 bet.
6. Qodirova R., Qodirova R. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. - Toshkent: Istiqlof, 2006. 67 bet.
7. Abdullayeva Q. Nutq o‘stirish. -Toshkent: O‘qituvchi, 1980. 66 bet
8. Muhiddinov G‘. O‘quv jarayonida nutq faoliyati. Toshkent: O‘qituvchi, 1995. 78 bet.

Referens:

1. Azimova I. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 2-sinf o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. 128 bet.

2. Hamroyev A., Po‘lotova Y. Ona tili o‘qitish metodikasi. – B.: Durdona, 2021. 312 bet.
3. Fayzullayeva M., Raximova Z., Rustamova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o‘stirish. -Toshkent: O‘qituvchi, 2010. 47 bet.
4. Shodiyeva Q., Maktabgacha yoshdagi bolalarni to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish. - Toshkent: O‘qituvchi, 1990. 54 bet.
5. Shodiyeva Q. O‘rta guruh bolalari nutqini o‘stirish. -Toshkent: O‘qituvchi, 1993. 17 bet.
6. Qodirova R., Qodirova R. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. - Toshkent: Istiqolol, 2006. 67 bet.
7. Abdullayeva Q. Nutq o‘stirish. -Toshkent: O‘qituvchi, 1980. 66 bet
8. Muhiddinov G‘. O‘quv jarayonida nutq faoliyati. Toshkent: O‘qituvchi, 1995. 78 bet.